

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MANTIQIY VA TANQIDIY
FIKRLASHNI O'RGATISHDA QO'SHIMCHA FANLARNING DOLZARBLIGI**

Hakimova Barnoxon Otabekovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

12-umumi o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuzatish metodidan o'quvchilarning fikrlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qiyoslashda keng foydalaniladi. o'quvchilarda tanqidiy fikrlashning shakllanganlik darajasini tashxislarda kuzatish metodi muhim ahamiyat kasb etishi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: o`qituvchi, o`quvchi, fikrlash, qiyoslash, muloqot, ko'paytiruvchi, ta`rif, masala.

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongi takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini o'rganish uchun ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodidan o'quvchilarning fikrlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qiyoslashda keng foydalaniladi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashning shakllanganlik darajasini tashxislarda kuzatish metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning dunyoqarashi, aqliy rivojlanishi, fikr yuritish dinamikasi, xulosalar chiqarishdagi mustaqil fikr bayon qilishi, faol nuqtai nazarini o'rganish va tahlil qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda masalalarni o'rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, sodda masalarni yechishdan murakkablarni yechishga o'tish yordamida amalga oshiriladi. Bunda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishga doir har xil sodda masalalar ya'ni bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisini topishga karrali va teng bo'laklarga bo'lishlarga doir sonni bir necha kattalashtirish va kichiklashtirishga oid masalalar sonlarni taqqoslashga amallarning noma'lum konponentlarni topishga doir sodda masalalar shuningdek turli murakkab masalalar shu jumladan keltirib echiladigan masalalar, ikki ko'paytuvchining yig'indisini topishga doir va unga teskari masalalar yig'indisini so'ngra ko'paytirish bo'lishga keltiradigan va boshqa masalalarni ko'rib chiqamiz.

Agar berilgan masala o'zining murakkabligi bilan sinfda yechilgan masalalarga mos yoki o'xshassa u holda o'quvchilar taklif qilingan masalaning echilishi yo'lini mustaqil

topishga o'rgatish kerak. Shu maqsadda o'quvchilar masalalar yechishga yaqinlashishning eng sodda umumiy usullarini egallashlari lozim.

Tanqidiy fikrlashning valiyligi uning qay darajada ekanligini belgilaydi. Fikrning validligi uning darajasini aniq ifodalaydi, yuqori darajada tanqidiy fikrlovchi o'quvchilar, o'rtacha tanqidiy fikrlovchi o'quvchilar yoki past darajada tanqidiy fikrlovchi o'quvchilar kabi.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini o'rganish uchun ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodidan o'quvchilarning fikrlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qiyoslashda keng foydalaniladi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashning shakllanganlik darajasini tashxislarda kuzatish metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning dunyoqarashi, aqliy rivojlanishi, fikr yuritish dinamikasi, xulosalar chiqarishdagi mustaqil fikr bayon qilishi, faol nuqtai nazarini o'rganish va tahlil qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faol darajada tanqidiy fikrlashlari ularning asab tizimlaridagi qo'zg'alishlariga ham bog'liqdir. U qo'yidagilarda namoyon bo'ladi:

- fikr ifodalash jarayonida o'zları duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf eta olishlari;
- maqsadga erishish yo'lida qat'iylik ko'rsatishlari;
- o'z o'quv faoliyatları davomida intensivlik va mahsuldorlikni saqlab qolgan holda, uzoq muddat mobaynida u darajada qiziqarli bo'lмаган topshiriqlarni bajaraolishlari;
- turli o'quv vaziyatlarida mahsuldor faoliyat ko'rsatib qat'iy fikr ifodalay olishlari;
- muloqot va munozaralar davomida mustaqillikka intilishlari;
- yangi o'quv vaziyatlarida o'zlarining notanish, kashf qilinmagan qirralarini namoyon qila olishlari kabilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1.Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2016 yil .

2.Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun) Toshkent. “O`qituvchi” 2004 yil